

## Oliy Ta'lim Muassasalarida Boshqaruv Tizimini Takomillashtirishda Xarajatlar Hisobining O'Rni Va Ahamiyati

*Nabiyev Muzaffar Abdumalikovich va Avilov Hetmatjon*

Andijon Davlat Texnika Instituti

Buxgalteriya hisobi va menjment kafedrası Iqtidosdiyot fanlari falsafa doktori(PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimini takomillashtirish jarayonida xarajatlar hisobining tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda xarajatlar hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xarajatlar hisobining axborot manbai sifatidagi roli asoslab berilgan hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim muassasalari, boshqaruv tizimi, xarajatlar hisobi, moliyaviy boshqaruv, byudjet mablag'lari, samaradorlik, rejalashtirish va nazorat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и значение учета затрат в процессе совершенствования системы управления высшими учебными заведениями. В ходе исследования проанализированы теоретические и практические аспекты организации учета затрат с целью повышения эффективности использования финансовых ресурсов в высших учебных заведениях. Также обоснована роль учета затрат как источника информации при принятии управленческих решений, а также разработаны существующие проблемы и предложения по их устранению.

**Ключевые слова:** Высшие учебные заведения, система управления, калькуляция затрат, финансовое управление, бюджетные средства, эффективность, планирование и контроль.

**Abstract:** This article discusses the role and importance of cost accounting in the process of improving the management system of higher education institutions. During the study, the theoretical and practical aspects of organizing cost accounting in order to increase the efficiency of using financial resources in higher education institutions were analyzed. Also, the role of cost accounting as a source of information in making management decisions was substantiated, and existing problems and proposals and recommendations were developed to eliminate them.

**Keywords:** Higher education institutions, management system, cost accounting, financial management, budget funds, efficiency, planning and control.

Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimini takomillashtirishni o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llaniladi. Bu yondashuv oliy ta'lim tizimining turli jihatlarini bir vaqtning o'zida tahlil qilishni nazarda tutadi. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanadi:

Sistemaning yondashuvi: Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi o'zaro bog'langan va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Shu bilan



birga, tizimning har bir qismini alohida tahlil qilish orqali uning samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin.

**Integratsiyalashgan yondashuv:** Iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish uchun integratsiyalashgan yondashuvdan foydalaniladi. Bu, boshqaruv tizimining iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy jihatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan.

**Innovatsion yondashuv:** Oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion texnologiyalar va boshqaruv usullarining joriy etilishi o‘rganiladi. Tadqiqotda zamonaviy boshqaruv metodlarini va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashning samaradorligi baholanadi.

### **Tadqiqot Metodlari**

Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

**Analitik metod:** Oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv tizimi va iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish. Bu metod yordamida mavjud boshqaruv tizimining samaradorligi o‘rganiladi va mavjud muammolar aniqlanadi.

**Solishtirma tahlil:** Oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv tizimlarini bir-biri bilan solishtirish. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlar yoki hududlardagi samarali boshqaruv tizimlari o‘rganilib, ta‘lim tizimini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Empirik tadqiqot:** So‘rovlar, intervyular, anketalar yordamida o‘qituvchi, talaba, va boshqaruv xodimlarining fikrlarini yig‘ish. Bu metod orqali oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv tizimining samaradorligi va muammolari haqida real ma‘lumotlar to‘planadi.

**Iqtisodiy tahlil:** Boshqaruv tizimining iqtisodiy mexanizmlarini o‘rganish. Oliy ta‘lim muassasalarining moliyaviy resurslarini taqsimlash, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va investitsiya jarayonlarini tahlil qilish.

**Kasbiy baholash metodlari:** Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini baholash uchun ekspertlar va mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan baholash metodlari qo‘llaniladi.

### **Tadqiqotda Foydalaniladigan Ma‘lumotlar Va Manbalar**

Tadqiqotda foydalaniladigan ma‘lumotlar ikki asosiy manbadan olinadi:

Birinchi manbalar (empirik ma‘lumotlar): So‘rovlar, intervyular, anketalar, oliy ta‘lim muassasalarining moliyaviy va boshqaruv hujjatlari, davlat va xususiy sektor tomonidan taqdim etilgan hisobotlar.

Ikkinchi manbalar (adabiyotlar va nazariy manbalar): Oliy ta‘lim boshqaruvi, iqtisodiy mexanizmlar, xalqaro tajribalar va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha adabiyotlar. Tadqiqotda ilgari olib borilgan ishlar va ilmiy tadqiqotlar o‘rganiladi.

Tadqiqot obyekti - bu oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv tizimi va iqtisodiy mexanizmlari, predmeti esa boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqotni olib borish uchun o‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalari asosiy tadqiqot maydoni sifatida tanlanadi. Tadqiqotda 2018-2024-yilgi ma‘lumotlar asosida tahlillar amalga oshiriladi.

### **Tadqiqot Dizaynining Cheklovlari**

Tadqiqot dizaynining boshlang‘ich nuqtalaridan biri bo‘lib tadqiqot paradigmasi hisoblanadi. Bu boshqacha qilib aytganda tadqiqot tuzulmasidir va u tadqiqot qay tarzda amalga oshirilishini insonlar falsafasi, dunyoning tuzilishi va bilimlarning mohiyati asosida belgilanadi.

Tadqiqot jarayoniga umumiy yondashuv esa metodologiya deb ataladi. Metodologiya va tadqiqotni qay tarzda o‘tkazish ko‘p hollarda tadqiqotimiz vazifalari, keltirilgan farazlar, taxminlarimiz va qay tarzda tadqiqot savollari tuzilganligi bilan aniqlanadi.

Oliy ta‘lim muassasalari buxgalteriya hisobida xo‘jalik jarayonlari, ularning ta‘siri ostidagi muassasa mablag‘lari va mablag‘ manbalarining tarkibi, tuzilishi va harakatiga oid sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar aks ettiriladi hamda muassasaning smetalari ijrosi natijasi aniqlanadi.



Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

qonunchilik talablari asosida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish hamda oliy ta'lim muassasalarida sodir bo'layotgan xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini va o'z vaqtida to'g'ri hujjatlashtirilishi ustidan boshlang'ich va joriy nazoratni tashkil etish;

oliy ta'lim muassasasi uchun ajratilgan byudjet mablag'laridan va ularni belgilangan maqsadlarda to'g'ri va tejab sarflanishi ustidan joriy nazoratni olib borish;

oliy ta'lim muassasasi va ularning tarkibidagi subyektlarning xodimlarini ish haqlarini va unga tenglashtirilgan to'lovlarini o'z vaqtida hisoblanishi va tegishli hujjatlarda o'z vaqtida aks ettirilishini ta'minlash;

buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarining holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish; oliy ta'lim muassasasining moliyaviy aktivlari, hisob-kitoblari va moddiy boyliklarini inventarizasiyadan o'tkazish hamda ular natijalarini o'z vaqtida to'g'ri aniqlash va hisobga olish;

moliyaviy hisobotlarni tuzish, tasdiqlash va qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirish;

buxgalteriya hujjatlari, hisob registrlari, daromadlar va xarajatlar smetalari va ular bilan bog'liq hisob-kitoblar hamda boshqa hujjatlarni tashkilotda saqlanishini tashkil etish va o'rnatilgan tartibda arxivga topshirish; buxgalteriya hisobini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va boshqalar.

Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning boshqa tarmoqlarning hisob turlariga nisbatan bir qator xususiyatlari mavjud. Bunda daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi bo'yicha xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish va nazorat qilish, buxgalteriya hisobi schyotlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlari va majburiyatlarining holati to'g'risidagi to'la va aniq ma'lumotlarni shakllantirish, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish hamda moliyaviy, soliq va boshqa hisobotlarni tuzish hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish deganda - tashkilot (muassasa)ning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risida, shuningdek, byudjet ijrosiga oid buxgalteriya ma'lumotlarini shakllantirish, byudjetdan tashqari moliyaviy manbalari bo'yicha xarajatlar hisobini yuritish, byudjet va byudjetdan tashqari moliyaviy manbalar bo'yicha foydalanuvchi (ichki, tashqi)larni uzluksiz ravishda ishonchli axborotlar bilan ta'minlash hamda daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi ustidan doimiy nazoratni olib borilishini tushunishimiz mumkin.

### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611-son qarori "Davlat moliyasini boshqarishda ichki audit tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Xizmat safarlari to'g'risida nizom"i, 2022-yil.
3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi me'yoriy hujjatlari, 2023-yil.
4. Qodirov A., Rahimova D. "Buxgalteriya hisobi va audit asoslari." – T.: Iqtisodiyot, 2021.
5. International Public Sector Accounting Standards (IPSAS) – 2022 Edition.
6. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
7. www.edu.uz – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi portali.
8. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi.

